<b>Pirmatov Nurali Berdiyevich, Egamov Akmal Mamarasulovich, Mamarasulov Nodir Akmal o'g'li</b>	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIK VA LIKVIDLIKNI BOSHQARUV HISOBIGA INTEGRATSIYALASH: KO'RSATKICHLAR TIZIMI, PROGNOZLASH VA ERTA OGOHLANTIRISH MEXANIZMI.....	803
<b>Xojiboyev Muxiddin Shodimuxamedovich</b>	
TAYYOR MAHSULOT QADRSIZLANISHI HISOBINI XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHTIRISH: ISHCHI SCHYOTLARINI JORIY ETISHNING METODIK ASOSLARI.....	808
<b>Babakulova Matluba Kurbannazarovna</b>	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МЕДЕЛИ УПРАВЛЕНИЯ СИСТЕМОЙ РАБОТЫ В МАХАЛЛЯХ.....	812
<b>Kosimjonov Nozimjon Kozimjonovich</b>	
MINTAQALARNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHIDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING AHAMIYATI: NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI .....	815
<b>Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich</b>	
TURISTIK XIZMAT BOZORINING MOHIYATI, UNING VAZIFALARI VA MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	821
<b>Payazov Murod Maqsudovich, Salimova Mumtozbeqim Jahongir qizi, Shahnoza Xudoyberdiyeva Davlatovna</b>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY HISOBLASH TEXNOLOGIYALARINING O'RNI .....	825
<b>Absamatov Asqar Ergashovich</b>	
MINTAQAVIY TURIZM SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI BO'YICHA TAVSIYALAR .....	830
<b>Raxmatov Adxam Itolmasovich</b>	
YAROQSIZ AVTOMOBIL SHINALARINI QAYTA ISHLASH USULLARI TAHLILI .....	839
<b>Maxmonov Uktam Ashurovich</b>	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISHI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI PROGNOZLASH METODLARI .....	845
<b>Bozorova Madina Raxmat qizi</b>	



HUDUDIY TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MEHMON UYLARINING ULUSHINI OSHIRISHNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI.....	850
<b>Dilbar Xasanovna Aslanova, Jasur Farxodovich Fattayev</b>	
АНАЛИЗ РАЗРАБОТКИ ЖЕНСКИХ КОЛЛЕКЦИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СТИЛИСТИЧЕСКИХ И КОНСТРУКТИВНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ПЕТРО-МОДЫ.....	854
<b>Абдурахманова Н., Рахматуллаева У. С.</b>	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI OSHIRISHNING ASOSIY MOLIVAVIY YO'NALISHLARINI BOSHQARISH MASALALARI.....	859
<b>Daniyarov Quwatbay Dáwirxanovich, Turdimuratova Gulsanem Asqar qizi</b>	
BUXORO SHAHRIDAGI PREZIDENT MAKTABINING MOLIVAVIY-IQTISODIY FAOLIYATI VA BOSHQARUV TIZIMINI TAHLIL ETISH.....	866
<b>Davidxodjajev Oybek Obidovich</b>	
ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISM FOR ENSURING FOOD SECURITY AND ITS STRUCTURAL COMPOSITION.....	871
<b>Mattiyev Sodiqjon Qodirovich</b>	
ISSIQ-QURUQ IQLIM HUDUDLARIDA BINOLARNING ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DINAMIK QUYOSHDAN HIMOYALOVCHI TIZIMLARNING ARXITEKTURAVIY-INJENERLIK YECHIMLARI.....	876
<b>Ahmadov Tolibjon Akmalovich</b>	
Iqtisodiy tizimda risk va uning xususiyatlari tahlili.....	879
<b>Nasimov Ravshanjon Azimovich</b>	
YASHIRIN IQTISODIYOT VA UNI RAQAMLI NAZORAT SHAROITIDA QISQARTIRISH USULLARI.....	887
<b>Nargiza Muzafarovna Babaeva</b>	
YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARINI BASHORAT QILISHDA MASHINALI O'QITISH ALGORITMLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	894
<b>Saytov Kamiljan Begdullaevich, Bekniyazova Nurjamal Danaevna, Xudaynazarova Malika Orinbaevna</b>	
TIJORAT BANKLARI KREDITLARI ASOSIDA YOG'-MOY SANOATI KORXONALARINI TRANSFORMATSIYA QILISH ISTIQBOLLARI.....	903
<b>Azlarova Dilnoza Axrorovna</b>	
YASHIL OBLIGATSIYALAR BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	908
<b>Mamayusupova Shahina Ulug'bek qizi</b>	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI: QUYOSH, SHAMOL VA GIDRO ENERGIYANI INVESTITSIYA VA DAROMAD TAHLILI.....	914
<b>Sohibov Azizbek, Karimova Komila</b>	
BUXORO TARIXIY MARKAZIDA TURISTIK SIG'IMNI ILMIY ASOSDA BOSHQARISH: KO'KALDOSH MADRASASI TAJRIBASI.....	919
<b>Ikromova Shaxinabonu, Qilichov Muhriddin</b>	
DAVLAT XARIDLARIDA TCO-UMUMIY EGALIK QIYMATI ASOSIDA BAHOLASHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	926
<b>Turabov Sarvar Abdumalikovich</b>	
MAHALLIY BYUDJETLAR MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULK VA YER SOLIQLARINI TAKOMILLASHTIRISH: EKONOMETRIK YONDASHUV.....	930
<b>Babayev Shavkat Bayramovich</b>	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ И ГИБРИДНЫЕ ПОДХОДЫ К ПРОЕКТИРОВАНИЮ ВЫСОТНЫХ ГОСТИНИЦ И СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ПУЛЬМОНОЛОГИЧЕСКИХ БОЛЬНИЦ.....	937
<b>Гаффорова Зиёда, Габибова Ирина</b>	
IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA YASHIL IQTISODIYOTNING O'RNI VA AHAMIYATI.....	952
<b>Tursinov A.J., N. Bazarbaev, Z. Dauletova, N. Mirzaxanova</b>	
MARKAZIY OSIYODA HUDUDIY INTEGRATSIYA JARAYONLARI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY HOLATI VA OMILLARI.....	956
<b>Akbarova Kamola Akmaljonovna</b>	



# QISHLOQ JOYLARDA AHOLINI UY-JOY BILAN TA'MINLASHNING MOLIYAVIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

**Xannarov Komiljon Karimovich**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xodimi, PhD

ORCID: 0009-0001-0447-7397

[xannarov.k@gov.uz](mailto:xannarov.k@gov.uz)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda qishloq aholisini uy-joy bilan ta'minlashning moliyaviy jihatlari tahlil qilinadi. Davlat dasturlari va xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi loyihalar doirasida qishloq joylarda 65 mingdan ortiq oilaning uy-joy sharoitlari yaxshilangan bo'lsa-da, moliyalashtirish mexanizmlari, yer resurslaridan foydalanish, infratuzilma xarajatlari va kreditlash shartlari bilan bog'liq tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Maqolada ushbu muammolarning iqtisodiy tabiati ochib beriladi va ularni bartaraf etishning ilmiy asoslangan yechimlari taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** qishloq uy-joy qurilishi, ipoteka kreditlari, moliyalashtirish mexanizmlari, davlat-xususiy sheriklik, infratuzilma xarajatlari.

**Аннотация.** В данной статье анализируются финансовые аспекты обеспечения сельского населения жильём в Узбекистане. Несмотря на то что в рамках государственных программ и проектов с участием международных финансовых институтов жилищные условия более чем 65 тысяч семей в сельской местности были улучшены, сохраняются системные проблемы, связанные с механизмами финансирования, использованием земельных ресурсов, расходами на инфраструктуру и условиями кредитования. В статье раскрывается экономическая природа данных проблем и предлагаются научно обоснованные пути их решения.

**Ключевые слова:** сельское жилищное строительство, ипотечные кредиты, механизмы финансирования, государственно-частное партнёрство, инфраструктурные расходы.

**Abstract.** This article analyzes the financial aspects of providing housing for the rural population in Uzbekistan. Although the living conditions of more than 65 thousand rural families have been improved within the framework of state programs and projects involving international financial institutions, systemic problems related to financing mechanisms, the use of land resources, infrastructure costs, and lending conditions remain. The article reveals the economic nature of these problems and proposes scientifically grounded solutions for overcoming them.

**Keywords:** rural housing construction, mortgage loans, financing mechanisms, public-private partnership, infrastructure costs.

## KIRISH

Qishloq aholisini uy-joy bilan ta'minlash masalasi rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu muammo aholining turmush darajasi, hududiy infratuzilmaning rivojlanganlik holati hamda mamlakatdagi ijtimoiy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda ham mazkur masala davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat aholisining qariyb 63 foizi qishloq hududlarida istiqomat qilishi qishloq joylarda zamonaviy va qulay uy-joylar barpo etish, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish hamda aholining yashash sharoitlarini yaxshilash zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida qishloq joylarni kompleks rivojlantirish va aholini munosib uy-joy bilan ta'minlash maqsadida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 2009-yildan boshlab davlat tomonidan "Qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi" joriy etildi. Mazkur dastur aholining, ayniqsa, kam va o'rta daromadli qatlamlarining uy-joy sharoitlarini yaxshilash, qishloq arxitekturasini zamonaviylashtirish hamda qurilish sohasini rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Dastur doirasida 2017–2021-yillar mobaynida 53 mingdan ortiq arzon uy-joy va ko'p qavatli turar joylar qurilib, qariyb 65 ming oilaning uy-joyga bo'lgan ehtiyoji qondirildi. Bu esa nafaqat aholining ijtimoiy farovonligini oshirishga, balki qishloq hududlarida yangi ish o'rinlarini yaratish, qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish va ichki iqtisodiy faollikni kuchaytirishga ham xizmat qildi. Shu bilan birga, amalga oshirilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, qishloq joylarda uy-joy qurilishini moliyalashtirish, ipoteka kreditlaridan foydalanish



imkoniyatlarining cheklanganligi, aholi daromadlarining nisbatan pastligi va infratuzilma xarajatlarining yuqoriligi kabi qator muammolar saqlanib qolmoqda.

Biroq mazkur dastur doirasida amalga oshirilgan keng ko'lamli qurilish ishlari jarayonida moliyaviy xarakterdagi qator tizimli muammolar yuzaga kelgani kuzatilmoqda. Xususan, ipoteka kreditlari foiz stavkalarining nisbatan yuqoriligi, aholining to'lov qobiliyatining cheklanganligi, qurilish materiallari narxlarining keskin oshishi hamda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini moliyalashtirish bilan bog'liq muammolar qishloq hududlarida uy-joy ta'minoti samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, tijorat banklarining uzoq muddatli moliyaviy resurslari yetarli emasligi ham ipoteka tizimi barqaror rivojlanishiga muayyan to'siqlarni yuzaga keltirmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

S. Zokirov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda aynan aholining uy-joy bilan ta'minlanishida yashash maydonining ijtimoiy mezonini to'g'risidagi fikrlar tahlil qilib o'tiladi. Uning fikricha, mamlakatimizning ayrim shaharlarida bir kishiga to'g'ri keladigan 16 m<sup>2</sup> yashash maydoni Andijon, Marg'ilon, Zarafshon va Xonobod, Qo'qon va Jizzax kabi shaharlarda kichikligicha qolayotganligi ta'kidlanadi. Bu esa aholini uy-joy bilan ta'minlashda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan muhim elementlardan biri ekanligini asoslashga xizmat qiladi.

R. Lavikka va boshqalar birgalikda uy-joy olishga bo'lgan motivatsiya va bozor tamoyillarini tahlil qiladi [1]. Ular tomonidan uy-joyga bo'lgan talabning o'zgarishi, moslashuvchanligi kabi omillar insonlar ehtiyojini qondira olish imkonini berishi tahlil qilinadi. Shuningdek, bozor tamoyillarining o'zgaruvchanligi fonida uy-joy bilan ta'minlash zarurati tadqiq etiladi.

R. Sattarov esa mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda viloyatlararo hamkorlik muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tadi. Uning xulosasida viloyatlararo hamkorlikni rivojlantirishda uy-joy va infratuzilma qurilishini amalga oshirish o'ziga xos yo'nalish ekanligi asoslashga harakat qilinadi [2].

D. Bahramova dissertatsion tadqiqotida aholini ijtimoiy himoya qilishning ustuvorliklari borasidagi ilmiy yondashuvlarini asoslashga e'tibor beradi [3]. Uning fikricha, aholini ijtimoiy himoyalashga ta'sir etuvchi omillar ikki guruh — ijtimoiy himoyalash inson hayoti faoliyatiga bog'liq ekanligi, ijtimoiy himoyalanganlik esa inson turmush darajasini belgilab beruvchi omil ekanligi shaklida ko'rsatib beriladi. Hayot faoliyati omillari qatorida uy-joy bilan ta'minlanganlik omilini ajratib ko'rsatib beradi. Shu bilan birga, turmush farovonligiga erishish uchun namunaviy loyihalar asosida imtiyozli va arzon uy-joylarni qurish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tadi.

G. Aliyeva o'zining ilmiy tadqiqotida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishning o'ziga xos jihatlarni tahlil etadi [4]. Uning fikricha, mintaqaviy ijtimoiy infratuzilma rivojlanishini belgilab beruvchi omillar qatorida uy-joy sohasi muammolarini hal qilishni keltirib o'tadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlarga e'tibor qaratsak, aholini uy-joy bilan ta'minlash borasida qator tub o'zgarishlar amalga oshirilganligini kuzatish mumkin. Jumladan, aholining kam ta'minlangan qatlamiga shaxsiy turar joy sotib olishida davlat budjeti mablag'lari hisobidan subsidiyalar ajratilishi yo'lga qo'yilganligi bu boradagi ishlarning amaliy ifodasi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Qishloq joylarda uy-joy qurilishini moliyalashtirish tizimi ko'p manbali moliyaviy mexanizm asosida shakllanib, asosan, uchta muhim moliyalashtirish kanali orqali amalga oshiriladi. Birinchi yo'nalish davlat budjeti mablag'lari hisoblanib, ushbu manba orqali ijtimoiy ahamiyatga ega uy-joy dasturlari, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi hamda subsidiyalash mexanizmlari moliyalashtiriladi. Davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'lar, avvalo, kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, qishloq hududlarida zamonaviy turar joy massivlarini shakllantirish hamda hududlar o'rtasidagi ijtimoiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi muhim moliyalashtirish manbai xalqaro moliya institutlari va xorijiy moliyaviy tashkilotlarning kredit liniyalari hisoblanadi. Xususan, Asian Development Bank, World Bank hamda Islamic Development Bank kabi xalqaro institutlar tomonidan ajratilayotgan uzoq muddatli imtiyozli kreditlar va investitsion resurslar qishloq uy-joy qurilishi dasturlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur mablag'lar, asosan, ipoteka tizimini rivojlantirish, infratuzilma obyektlarini qurish va zamonaviy uy-joy massivlarini barpo etishga yo'naltiriladi.

Uchinchi moliyalashtirish kanali fuqarolarning o'z mablag'lari hamda tijorat banklari tomonidan ajratiladigan ipoteka kreditlaridan iboratdir. Ushbu mexanizm aholining xususiy moliyaviy resurslarini uy-joy qurilishiga jalb etish imkonini beradi. Shu bilan birga, ipoteka kreditlari aholining uzoq muddatli moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq aholining daromad darajasi, kredit foiz stavkalari va boshlang'ich badal miqdori kabi omillar ushbu tizim samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada qishloq hududlarida uy-joy qurilishini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish dolzarb iqtisodiy vazifalardan biri sifatida saqlanib qolmoqda.

1-jadval.

#### Qishloq uy-joy qurilishini moliyalashtirish manbalari (2020-2023)

Moliyalashtirish manbai	Ulushi, %	Shartlari
Davlat budjeti	35%	Maqsadli jamg'armalar
Xalqaro moliya institutlari	40%	15-20 yil, past foiz
Ipoteka kreditlari	25%	20 yil, boshlang'ich badal 10-15%

Davlat budjeti mablag'larining 35 foizlik ulushi qishloq uy-joy qurilishida davlatning bevosita ishtiroki muhimligini ko'rsatadi. "Maqsadli jamg'armalar" orqali moliyalashtirish budjet mablag'larining boshqa maqsadlarga sarflanishining oldini oladi va resurslardan foydalanishda shaffoflikni ta'minlaydi. Biroq bu ulushning nisbatan pastligi budjet imkoniyatlarining cheklanganligini, ayniqsa, qishloq joylarda infratuzilma qurilishi talab qilinadigan yuqori boshlang'ich xarajatlarni qoplashda davlatning to'liq mas'uliyatni o'z zimmasiga olmasligini anglatadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan, davlat bu yerda multiplikator vazifasini bajaradi — budjet mablag'lari xususiy va xalqaro investitsiyalarni jalb qilish uchun "zamin" yaratadi. Yangi uy-joylar sotuv narxi o'rtacha 48 foiz, 2020-yilga nisbatan esa 2,6 barobarga, 2021-yilga nisbatan 2 barobar oshgan.

Masalan, eng katta o'sish Xorazm viloyatida 76 foiz, Farg'onada 73 foiz va Sirdaryoda 69 foizga to'g'ri keladi. Navoiyda 1 kvadrat metr uy-joy narxi 6,5 million so'm bo'lib, boshqa viloyatlarga nisbatan 18 foiz qimmat ekanligini ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, davlatning qishloq uy-joy qurilishidagi ishtiroki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish hamda aholining turmush darajasini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, kelgusida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, maqsadli jamg'armalar faoliyatini takomillashtirish va uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilish orqali qishloq uy-joy siyosati samaradorligini yanada oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

2-jadval.

#### Infratuzilma xarajatlarini oshiruvchi omillar

Omil	Iqtisodiy ta'sir	Bartaraf etish yo'li
Muhandislik tarmoqlarini olib borish imkoniyatlarini o'rganmaslik	Xarajatlar 20-30% ga oshadi	«Obod qishloq» dasturi bilan uyg'unlashtirish
Energiya samarador materiallardan foydalanmaslik	Ekspluatatsiya xarajatlari 40% ga yuqori	Mahalliy energiya samarador materiallarni qo'llash
Loyiha-smeta hujjatlarining sifatsizligi	Ortiqcha sarf 15-25%	Ekspertiza va monitoringni kuchaytirish

2-jadvalda qishloq joylarda uy-joy qurilishi jarayonida uchraydigan asosiy tashkiliy-iqtisodiy muammolar, ularning iqtisodiy oqibatlari hamda bartaraf etish mexanizmlari tizimli ravishda aks ettirilgan. Mazkur omillar qurilish loyihalarining moliyaviy samaradorligi va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Birinchi omil — muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini olib borish imkoniyatlarini yetarli darajada o'rganmaslik bilan bog'liq. Amaliyotda loyiha hududining gaz, suv, elektr energiyasi va yo'l infratuzilmasiga ulanish imkoniyatlari oldindan chuqur tahlil qilinmagani natijasida qurilish xarajatlari o'rtacha 20–30 foizga oshishi kuzatiladi. Bu holat, avvalo, qo'shimcha kommunikatsiya tarmoqlarini tortish, texnik qayta loyihalashtirish va muddatlarning uzayishi bilan izohlanadi. Iqtisodiy jihatdan bunday vaziyat investitsion resurslardan samarasiz foydalanishga hamda qurilish loyihalarining rentabellik darajasining pasayishiga olib keladi. Jadvalda taklif etilganidek, uy-joy qurilishi loyihalarini "Obod qishloq" dasturi bilan uyg'unlashtirish infratuzilma xarajatlarini markazlashgan holda rejalashtirish imkonini beradi va davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshiradi.



Ikkinchi muhim omil — energiya samarador qurilish materiallaridan yetarli darajada foydalanilmasligidir. An'anaviy va energiya tejamkor bo'lmagan materiallardan foydalanish natijasida uy-joylarning ekspluatatsiya xarajatlari 40 foizgacha yuqori bo'lishi mumkin. Bu esa uzoq muddatda aholining kommunal xarajatlari ortishiga, energiya resurslariga bo'lgan talabning ko'payishiga hamda ekologik yuklamaning oshishiga sabab bo'ladi. Zamonaviy iqtisodiy yondashuvlarga ko'ra, energiya samarador texnologiyalarni qo'llash dastlabki investitsiya xarajatlarini biroz oshirishi mumkin, biroq kelgusida ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, mahalliy energiya samarador qurilish materiallarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanishni kengaytirish import xarajatlarini kamaytirish bilan birga milliy qurilish sanoatining rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Uchinchi omil loyiha-smeta hujjatlarining sifatsiz tayyorlanishi bilan bog'liq bo'lib, bu holat qurilish jarayonida ortiqcha moliyaviy sarf-xarajatlarning 15–25 foizga oshishiga sabab bo'ladi. Smetalardagi aniqlikning yetarli emasligi, texnik xatolar va rejalashtirishdagi kamchiliklar qo'shimcha qurilish ishlari hamda mablag'larning samarasiz sarflanishiga olib keladi. Mazkur muammo investitsion loyihalar boshqaruvida institutsional nazorat mexanizmlarining yetarli darajada samarali emasligini ham ko'rsatadi. Shu sababli ekspertiza va monitoring tizimini kuchaytirish, raqamli loyiha boshqaruvi elementlarini joriy etish hamda mustaqil texnik audit mexanizmlaridan foydalanish qurilish jarayonining shaffofligi va iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, jadvalda keltirilgan omillar qishloq joylarda uy-joy qurilishini moliyalashtirish tizimida nafaqat moliyaviy, balki institutsional va texnologik muammolar ham mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu muammolarni kompleks ravishda bartaraf etish qurilish xarajatlarini optimallashtirish, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda qishloq aholisining uy-joy bilan ta'minlanish darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq joylarda aholini uy-joy bilan ta'minlash masalasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim strategik ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda qishloq hududlarida namunaviy uy-joylar qurilishi, ipoteka kreditlash tizimini kengaytirish hamda infratuzilmani rivojlantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada minglab oilalarning uy-joy sharoitlari yaxshilanib, qishloq hududlarining me'moriy qiyofasi va ijtimoiy infratuzilmasi sezilarli darajada rivojlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qishloq joylarda uy-joy qurilishini moliyalashtirish tizimida qator tizimli muammolar mavjud. Xususan, aholining daromad darajasining pastligi, ipoteka kreditlari foiz stavkalarining yuqoriligi, qurilish materiallari narxining oshib borishi hamda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini moliyalashtirishdagi qiyinchiliklar uy-joy ta'minoti samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, loyiha-smeta hujjatlarining sifatsiz tayyorlanishi va energiya samarador texnologiyalarning yetarli darajada qo'llanilmasligi qurilish xarajatlarning ortishiga olib kelmoqda.

Shuningdek, davlat budjeti mablag'lari qishloq uy-joy siyosatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutayotgan bo'lsa-da, mavjud resurslar barcha ehtiyojlarni to'liq qoplash uchun yetarli emasligi aniqlandi. Shu sababli xalqaro moliya institutlari kredit liniyalari va xususiy investitsiyalarni keng jalb etish zarurati ortib bormoqda. Iqtisodiy nuqtai nazardan, davlat mazkur jarayonda "multiplikator" vazifasini bajarib, xususiy va xorijiy investitsiyalarni rag'batlantiruvchi muhim institutsional omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Umuman olganda, qishloq joylarda aholini uy-joy bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish moliyaviy mexanizmlarni diversifikatsiya qilish, infratuzilmaviy xarajatlarni optimallashtirish hamda energiya samarador texnologiyalarni joriy etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu esa nafaqat aholi turmush darajasining oshishiga, balki hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Lavikka, R., & Paiho, S. (2023). Motivations and market solutions for flexible housing in Finland. *Journal of Housing and the Built Environment*, 38(3), 1789–1818. DOI: 10.1007/s10901-023-10013-5.
2. Sattarov R.A. Viloyatlararo ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish: Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari misolida: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: PMTI, 2023. – 53 b.
3. Bahramova D.B. Aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo'nalishlarini iqtisodiy-statistik tahlili: Qashqadaryo viloyati misolida: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2018. – 56 b.
4. Aliyeva G.A. Ijtimoiy infratuzilmalar rivojlanishini boshqarishni takomillashtirish: Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – Nukus: Qoraqalpoq davlat universiteti, 2020. – 56 b.
5. Asadullina N.R., Normurodov S.N. O'zbekistonda uy-joy qurilishining rivojlanish tendensiyalari // *Golden Brain*. – 2023. – T. 1. – № 26. – B. 11–23.
6. O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi. 1998-yil 24-dekabrda qabul qilingan, 1999-yil 1-apreldan kuchga kirgan. <https://lex.uz/docs/-3064985>



7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017–2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo‘yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2639-son qarori, 2016-yil 21-oktabr. <https://lex.uz/docs/3056473>
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish to‘g‘risida”gi PF-29-son farmoni, 2026-yil 24-fevral. <https://lex.uz/docs/7393532>

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. May. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)